

## ABDULLA QAHHORNING MAQOLLARDAN INDIVIDUAL FOYDALANISH MAHORATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10791527>

**Isroilova Guljahon Jamolovna**

### **Annotatsiya**

*Ushbu maqolada soʻz koʻrki boʻlmish maqollardan foydalanishning ahamiyati, ularni qoʻllash usullari Abdulla Qahhor asarlari misolida yoritib berilgan.*

### **Kalit soʻzlar**

*Maqol, oʻzgarishsiz qoʻllangan maqollar, oʻzgartirib qoʻllangan maqollar, maqol tipida ijod qilingan maqollar, qisqalik, taʼsirlilik.*

Badiiy adabiyotda maqol va matallar yozuvchi anglatmoqchi boʻlgan maʼnoni obrazli qilib ifodalash uchun xizmat qiladi. Ular shaklan ixcham, mazmunan keng, obrazli va yaxlit, barqaror ohangga ega boʻlganligidan nutqda, ayniqsa, badiiy nutqda alohida qimmatga egadir. Maqollarda fikrni ixcham, loʻnda qilib ifodalash imkoniyati mavjudligi sababli ham nutqning ifodaliligi, taʼsirchanligini taʼminlashda foydalaniladi. “Dono fikrni, oʻtkir haqiqatni, teran mazmunni, soʻz xazinasining duru javohirlarini oʻzida mujassam etgan rang-barang maqollar nutqimizning ekspressiv (yaʼni taʼsir etuvchi, his-hayajon uygʻotuvchi) vositalari orasida eng taʼsirchan, eng esda qoluvchi, kishini oʻylashga, fikr-mulohaza yuritishga beixtiyor majbur qiluvchi kuchga egadir”.

“Biz yoʻqotgan qadrini qayta topayotgan xalqmiz. Masjidlarimiz, muqaddas kitoblarimiz, unutilgan bayramlarimiz, udumlarimiz, odatlarimiz, qaytib kelayotgan bir davrda oʻzbekman degan har bir inson oʻz kechmishini va hozirini mukammal bilmogʻi, oʻz ona tilisining zargari boʻlmogʻi lozim. Maqol esa soʻz koʻrkigina emas, dilning ham, umrning ham koʻrkidir. Oʻz qadrini bilgan odam soʻzni pala-partish ishlatmaydi. Uning asl maʼnosini qidiradi, bilib oʻrniga koʻyib gapiradi” . Abdulla Qahhor ham oʻz asarlarida tasvirning tiniqligi, taʼsirliligiga erishishda maqol va hikmatli soʻzlardan samarali foydalangan va ular qolipida oʻzi ham hikmatli soʻzlar ijod etgan. Adib ijodida qoʻllangan maqollarni asosan quyidagi guruhlarga boʻlib oʻrganish mumkin:

- 1.Oʻzgarishsiz qoʻllangan maqollar.
- 2.Oʻzgartirib qoʻllangan maqollar.
3. Maqol qolipida yozuvchi ijod qilgan maqollar.

O'zgarishsiz qo'llangan maqollar xalq tilida shakli va mazmuni qanday bo'lsa shu holda badiiy nutqqa olib kiriladi hamda ular fikrni ta'sirchan, nutqni obrazli qilishga xizmat qiladi. Adib ulardan asosan o'z fikrini dalillash uchun kiritib ketadi va maqollar aynan xalqqa tegishli ekanini ko'rsatish maqsadida degandek, degan gap bor kabilar bilan berib o'tadi: Dadam taqachilikni jinidan battar yomon ko'rsa ham, tirikchilik toshni yoradi, degandek, otni qornidan bog'lab taqalanadigan dorni tikib, taqa yasashga kirishdi. ("O'tmishdan ertaklar") [Suxsurov] «Tomoqqa qiltanoq tiqilsa mushukning tirnog'i dori» degan gap bor. ("Tobutdan tovush") Falonchiga pora deb bersang, tirik kirpini teskari yutadi, degan gap mana shundan qolgan. ("Pora") [Shakar] Undok emasdir! «Latta hidi kelsa, avval o'zingdan xabar ol», degan gap bor. Asti xafa bo'lmang!. Karimjon kelib suyunib qolgandirsiz? ("Ayajonlarim") «Bir kun tuz ichgan joyingga qirq kun salom bergin», degan. Tanqiddan qo'rqmang, Mavlon aka. Kasalxonada yotib ichgan doringizdan ko'ra mayiz shirinroq, lekin kasalni mayiz emas, achchiq dori tuzatadi... Soat yettida tantanali majlis boshlanadi, kiyinib keling. ("Shohi so'zana") [Nasiba] Bas! Qalbaki gaplaringiz jonimga tegdi! Ko'r hassasini bir marta yo'qotadi. ("Og'riq tishlar") Shunday degan bo'lsang, qani, puldan chiqar! Bir bir yuz o'n besh so'm sakson tiyin bersang bo'ladi. Hisoblik do'st ayrilmas. ("Og'aynilar") [Bo'ston] Bitta ro'zg'orga bitta doktor bas! Boltang ikkita bo'lsa, bittasining huzurini qo'shni ko'radi! [Karimjon] E-e, keling, Xayrixon! Kasal tuzalgisi kelsa, tabib o'z oyog'i bilan keladi. ("Ayajonlarim")

Adib maqollarni aynan qo'llaganda faqat iqtibos shaklida keltirmasdan, ularni shakli va mazmunini saqlagan holda gapning biror bo'lagi vazifasida ham qo'llaydi: Xom sut emgan odam bolasi, ba'zan do'lanani ko'rib tog'ni esidan chiqarib qo'yadigan mavridlar ham bo'lar ekan-da! Mirzacho'l O'zbekistonning bino qo'ygan farzandlaridan biri bo'lib qoldi. Respublika katta niyatlar, zo'r-zo'r orzu-havaslar ko'rish umidida o'stirayotgan bu farzandiga non yeganda yumshog'ini, osh yeganda iligini berib kelayotipti. Dehqonboyning g'ayrati joyida... Lekin o'rtoq, Odilov, toy irg'ishlaydi-yu, aravani... ot tortadi! ("Shohi so'zana") Qiyinchilik aqlning charxi-yu, g'ayratning qayrog'i bo'lar ekan, — deydi Nazarov, — o'sha yillari xumdonsiz g'isht pishirish yo'lini topgan edik. G'ishtsiz, guvalaksiz imorat solish yo'lini ko'zlagan edik... Shundok qilgan edik ham... ... ikkinchidan, foydasi naqd bo'lmagan haq so'zdan ko'ra, foydasi nakd nohaq so'z quloqqa tezroq kiradi degan xayolga borib, fikrida qattiq turib olgani botinolmabdi, bu orada raisga yomon ko'ringani qolibdi. ("Sinchalak") Vofurush keyinchalik: «Bir ochga, bir yalang'ochga tegma», deb o'ylagan bo'lsa kerak, har kuni bittadan o'roq tashlab ketadigan bo'ldi. Obidjonga bitta chiroyli xat yozasan, o'tgan gaplarga

salavot, degan joyini kelishtirganingdan keyin «jon bor joyda qazo bor, jigarchilik... seni ko'rolmay o'lsam, ko'zim ochiq ketadi» deysan. Obidjonning ko'ngilchan odam, chopib keladi. Mahkam ushlaymiz. Hojarni yuvib-tarab qo'yniga solamizu uchastkani ikkovining nomiga o'tkazamiz-qo'yamiz. Tamom – eshik tamba!

Ba'zida maqollarning kesimini shaxs-son va zamonga mos tarzda qo'llaydi: Mayli, sizlar yordam beramiz desalaring «qulluq» deyishdan boshqa so'zim yo'k, lekin bu ham bitaversin, ot topilguncha eshak minib turamiz! ("Ayajonlarim") Yusuf, haqiqatan kambag'al odam, bir kambag'alga muruvvat qilaman degan kishi... O't o'chirgani tiniq suv qidirib yurilmaydi-ku! ("Tobutdan tovush") [Zargarov] Qani endi shularning hammasi tushim bo'lsa-yu uyg'onib ketsam! Qadamimni bilib bosar edim. Shu vaqtacha kalla deb jun chiqqan qovoqni ko'tarib yurgan ekanman! Jun chiqqan qovoqni! [Xumorxon] Erning gapini ikkita kilish yaxshi emas, opasi o'rgilsin! Aravasiga tushganingizdan keyin ashulasini ham aytasiz-da! Mana men aytib yuribman-ku, mendan ibrat olsangiz bo'lmaydimi! [Mavlon] Bugun ham 50 kilo tergandirsan-da!.. Paxta desa saratonda qo'ling sovqotadi... ("Ayajonlarim") O'zgartirib qo'llangan maqollarda asosan yozuvchi badiiy niyatiga, nutq vaziyatiga mos tarzda ba'zi so'zlarning o'rnida boshqasini qo'llaydi, ba'zida maqol tarkibidagi biron so'zni tushirib qoldiradi yoki aksincha so'z qo'shadi. Okila. Ko'chada yotgan suyakni kaysi it g'ajimaydi! ("So'nggi nusxalar".) Ushbu gapda it ko'chada yotgan suyakni g'ajiydi maqolini aynan shu shaklda o'zgartirib qo'llash orqali ham Oqilaning Xumorxonga bo'lgan munosabati, ham yozuvchining bunday ayollarga bo'lgan fikrini yashirin ifodalashga erishgan. Vofurush ikki kun ko'rinmadi, uchinchi kuni ertalab dadamni amin chakirtirdi. Amin dadamga dashnom beribdi: «Qari odamni urdiribsiz, bu safarcha ma'zur ko'ramiz, lekin bundan keyin qadamingizni bilib bosing, qishloqning darvozasi bor» debdi, dadamning bir og'iz gapiga ham quloq solmabdi. Keltirilgan leksik qurshovdagi maqol aslida "Shahar bedarvoza emas" hikmatli so'zidir. Adib tasvirlagan voqea, ya'ni vofurushning kaltaklanishi, qishloqda bo'lgani sababli maqol shu tarzda ko'llanilgan. Xalqimizda ikki qo'chqorning boshi bir qozonda qaynamaydi maqoli bor. Saidaning g'ayratliligi, har bir ishda, gapda chaqqonligini ko'rgan Qalandarov shunday deydi: Gap bunday, Saidaxon... ikkovimiz bir qozonda qaynay olmayotibmiz. Men qiziqqonrok, buning ustiga, qo'polroq odamman. Siz yoshsiz, buning ustiga, ayol kishisiz, o'qigan qizsiz... Har qaysimiz o'z izzatimizda qolsak... Men jon deb ketar edim, lekin kolxozga ko'p mehnatim singgan, bundan tashqari, ketgani ko'yishmasa kerak deb o'ylayman...

Yozuvchi bu yerda maqoldagi ikki qo'chqor so'zini tashlab ketgan. Chunki Saida qiz bola. Ammo Qalandarov tilidan aynan shu gapni aytilishi bilan u boshidan kiz bola deb mensimagan qizning erkaklar bilan teng ishlaganini, uning tajribaliligini tan olganini yashirin tarzda ifodalashga erishgan.

Ba'zi o'rinlarda yozuvchining o'zi ham nutq vaziyatiga mos ravishda maqol, hikmatli so'z ijod qilganining guvohi bo'lishimiz mumkin. "O'tmishdan ertaklar" qissasida yosh Abdullaning otasiga yordam berishi jarayonida oyog'i kuyib qolganda, usta Abduqahhor tilidan o'z o'g'liga nasihat tarzida shunday maqol keltiriladi: "Temirchi degan kuyib-kuyib temirchi bo'ladi-da!" Bu xalqimizda mavjud "Bola yig'lab katta bo'ladi, Bola yiqilib-yiqilib katta bo'ladi" maqoli sxemasida ijod kilingan. Maqollarning paydo bo'lishi bevosita xalqning turmush-tarzi, kasb-kori bilan bog'liqdir. Temirchilik kasbi bor joyda olov, ko'mir, umuman issiqlik bo'lgani sababli ham uning kuyib qolishi tabiiy bir hol. Xuddi shuningdek, quyidagi maqol va hikmatli so'zlar adib maqsadiga hamohang ravishda ijod qilingan: Magazin direktorining og'zini moylashga harakat qilganiga hech hayron qolmayman. Yo'q! Kana sigirning qulog'iga tushadi, tuyog'iga emas. ("Og'aynilar") [Qo'ziyev] Yo'k, Mavlon aka, bitta mix bilan imorat solib bo'lmaydi [Marasul] Axmoq! O'z xotinini aldagan odam o'ynashiga rost gapiradi deb senga kim aytgan edi? Sizdan ham serpulrog'ini topgandir-da... [Xumorxon] Bunaka vaqtda erni sher qiladigan pul, xotinni sher qiladigan xushtor! [Fotima] Voy, ilm uvol emasmi, nega ishlamaysiz? Hozirgi zamonda sichqon tutmaydigan mushuk ham odamning ko'ziga xunuk ko'rinadi-ya! ("Ayajonlarim") [Dehqonboy] Onajon, orden degan narsa olg'a yurgan kishining ko'kragida yashnaydi. Uning paxtachilik, pillachilik, chorvachilikdagi tajribasi, bog'dorchilik, sabzavotchilikdagi hunar ustiga xo'jalikni olib borishdagi mahorati kolxozchilarning zavqini keltiradi: - Raisimiz hisobini topsa, sigirning ma'rashidan ham foydalanadi! ("Do'rmon lochini") Keltirilgan misol qalovini topsang, qor ham yonadi maqoli sxemasida yaratilgan maqol tipidagi birikma bo'lib, raisning ishbilarmonligini, sigirning hamma narsasi (suti, go'shti, go'nggi)dan foydalangani, agar shu ma'rashidan ham biror ish qilish mumkin bo'lganda, shuni ham qilishini aytib o'tmoqchi bo'ladi. Ko'rinib turganidek, yozuvchi bu yerda ham uzundan uzun jumlar tuzib, raisni bizga tanishtirmaydi, balki shu birgina hisobini topsa, sigirning ma'rashidan xam foydalanadi gapi orqali uning barcha sifatlarini kitobxonga yetkazaoladi.

– Men topgan ishga aql ham kerakmas, kuch ham, lekin yarim mehnat kuni oladi. Odamning chiqiti bo'lmaydi, aytib chiqing! ("Sinchalak") Jamoaning rahbari sifatida har bir rais qo'l ostidagi odamlarning mehnatidan oqilona foydalana olishi lozim. Qalandarovning nogiron kishi uchun ham ish topganligini, har bir

odamning jamiyatda o'z o'rnini borligini ko'rsatish maqsadida yozuvchi odamning chiqiti bo'lmaydi maqolini keltirib o'tadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, so'z ko'rki bo'lgan maqollardan foydalanishda yozuvchi o'z maqsadiga yetisha olgan. U qo'llagan har bir maqol badiiy nutqda qisqalik, lo'ndalik, ta'sirlilikni oshirish bilan bir qatorda, voqealar mazmuni, qahramonlar xarakterini yorqinroq ifodalashda o'z ta'sirini ko'rsata olgan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulla Qahhor. Asarlar, besh jildlik, birinchi jild. - T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987. -336 b.
2. Abdulla Qahhor. Asarlar, besh jildlik, uchinchi jild. - T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988. -368 b.
3. Abdulla Qahhor. Asarlar, besh jildlik, beshinchi jild. - T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. -272 b.
4. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. O'quv qo'llanma.- Toshkent: Mumtoz so'z, 2010.
5. Jamolovna I. M. Occasional update of phraseological units in publicistic text //Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. - 2023. - T. 11. - №. 4. - C. 1458-1464.
6. Jamolovna I. M. Emotional and evaluative components of comparative phraseological units //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. - 2023. - T. 11. - №. 5. - C. 49-52.
7. Normatov U. Qahhorni anglash mashaqqati. -Toshkent, O'zMU. 2000.
8. Hikmatnoma. (o'zbek xalq maqollarining izohli lug'ati. T.1990, 524 b.
9. Isroilova M. The stylistic role of comparison in publicistic texts //Scientific Impulse. - 2023. - T. 1. - №. 9. - C. 196-198.
10. Rahmatullayev SH. Nutqimiz ko'rki. T.: Fan. 1970. 58 bet.